O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI KOGON TUMANI HOKIMINING

QARORI

200700, Kogon shahri, Buxoro shoh ko‘chasi 16 uy. Tel: (8 365)524-61-77, faks: (8 365) 524-75-36

2023 - yil 10 - noyabr 347-2-36-Q/23 Kogon tuman hokimligi

2024-yilda tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-39-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son) Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Kogon tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limining ish joylarining eng kam miqdorini band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma'qullansin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori (kvotalangan ish o‘rinlari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 207 kishini

tashkil etadigan 4,5 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali farzandli oilalarning ota-onalari uchun 14,5 foiz (30 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun 15,9 foiz (33 kishi);

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 33,3 foiz (69 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 2 foiz (4 kishi);

nogironligi bo’lgan shaxslar uchun 3,4 foiz (7 kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 2,4 foiz (5 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun 2 foiz (4 kishi);

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari, shu jumladan (“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida kam ta‘minlangan oila sifatida ro‘yxatga olingan oilalarning ishsiz shaxslari, 3 nafar va undan ortiq voyaga yetmagan farzandli oilalarning ota-onalari va mehnat muxojirlari uchun, "temir", "ayollar", "yoshlar" daftarlaridan birida ro‘yxatda turuvchi ishlamayotgan shaxslar va oliy ta’limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilari va oliygoxni tugatmagan yoshlar uchun) 26,5 foiz (55 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta'minlasinlar.

4.O‘zbekiston Respublikasi Kambag`allikni qisqartirish va bandlik vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini

hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu qarorning ikkinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

6. Tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi (I.To’rayev) qaror tasdiqlangan kundan boshlab bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari e'tiboriga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlasin.

7. Mazkur qaror “Kogon hayoti” gazetasida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

9. Qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Zadayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.T.Esanov**

Kogon tuman hokimining
2023-yil 10-noyabrdagi
347-2-36-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Kogon tumanida 2024 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band (kvota) qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Tuman (shahar) nomi	Ish o‘rini zaxiralash belgilangan korxona tashkilot nomi	**Korxona tashkilot STIR (STIR aniq bo‘lishi shart)**	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar soni	Jami zaxiralanishi belgilangan ish o‘rinlarining soni	SHundan:							
						14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali farzandli oilalarning ota-onalari uchun	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun	“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun	nogironligi bo’lgan shaxslar uchun	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolarning boshqa toifalari, shu jumladan (“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida kam ta‘minlangan oila sifatida ro‘yxatga olingan oilalarning ishsiz shaxslari, 3 nafar va undan ortiq voyaga yetmagan farzandli oilalarning ota-onalari va mehnat muxojirlari uchun, "temir", "ayollar", "yoshlar" daftarlaridan birida ro‘yxatda turuvchi ishlamayotgan shaxslar va oliy ta’limni to‘lov shartnomasi asosida bitiruvchilari va oliygoxni tugatmagan yoshlar uchun)
1	Kogon tuman	ETB VIB ABMK	201109046	36	2	1			1				
2	Kogon tuman	VIB ABMK boshqaruv apparati	201172864	160	8	1		2	1			1	3
3	Kogon tuman	Buxoro Geofizika Ekspedisiyasi	201127396	120	6	1		3					2
4	Kogon tuman	Shohrud -Do‘stlik Irrigatsiya tizimi boshqarmasi	204661071	46	2		1						1
5	Kogon tuman	Kogon tuman Irrigatsiya bo‘limi	305094900	40	2		1						1
6	Kogon tuman	Veterinariya bo‘limi	201172929	25	1		1						
7	Kogon tuman	Kogon Ixtisoslashgan davlat o‘rion xo‘jaligi	308780924	24	1	1							
8	Kogon tuman	Amubuxoro qurilish montaj MCHJ	302850089	30	2							1	1
9	Kogon tuman	Kogon tuman YFDUK	201172699	93	5	1	1		1			1	1
10	Kogon tuman	MARKAZIY SHIFOXONA	201172896	1024	38	9	10	10		1	1		7
11	Kogon tuman	Kogon tuman SEOM	201557313	38	2			1					1

12	Kogon tuman	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Kogon tuman ixtisoslashtrilgan maktab		58	3			2					1
13	Kogon tuman	Kasb-hunar maktabi	201557320	52	3			2					1
14	Kogon tuman	Kogon tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	201172872	43	3		1	1		1			
15	Kogon tuman	6- son BMSM	207190159	40	2		1			1			
16	Kogon tuman	Kogon tuman Bolalar va o'smirlar sport maktabi	203444706	65	4	1	1	1					1
17	Kogon tuman	Kogon tuman "BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	207066152	32	2		1						1
18	Kogon tuman	Madaniyat bo'limi	201173032	37	2		1			1			
19	Kogon tuman	1-IDUM	202177500	75	4	1		1					2
20	Kogon tuman	1 - maktab	206922425	85	4			1		1	1		1
21	Kogon tuman	2 - maktab	201800969	50	3			1			1		1
22	Kogon tuman	3 - maktab	206922504	77	4			2					2
23	Kogon tuman	4 - maktab	206922457	70	4			2					2
24	Kogon tuman	5 - maktab	206922464	91	5	1		3					1
25	Kogon tuman	6 - maktab	202177492	48	2			2					
26	Kogon tuman	7- maktab	202163978	66	3		1	1					1
27	Kogon tuman	8 - maktab	206922433	73	4			2			1		1
28	Kogon tuman	9 - maktab	206922440	46	2		1	1					
29	Kogon tuman	10-maktab	206922496	60	4	1		1		1			1
30	Kogon tuman	11-maktab	202124771	79	4			3					1
31	Kogon tuman	12-maktab	206922489	61	3			2					1
32	Kogon tuman	13-maktab	206909811	54	3	1		1					1
33	Kogon tuman	14-maktab	202131202	50	3	1		2					
34	Kogon tuman	15-maktab	203214065	73	4			2					2
35	Kogon tuman	16-maktab	202142569	58	3			2					1
36	Kogon tuman	17-maktab	202153032	86	4			2					2
37	Kogon tuman	18- maktab	305754711	59	3			2					1
38	Kogon tuman	19-maktab	203859806	42	2			1					1
39	Kogon tuman	20-maktab	204010518	42	2			2					
40	Kogon tuman	21-maktab	206922472	53	3			2					1
41	Kogon tuman	22-maktab	207311235	46	2			2					
42	Kogon tuman	23-maktab	310114398	40	2			2					
43	Kogon tuman	24-maktab	310114406	40	2			2					
44	Kogon tuman	1- MTM	207049323	37	2	1	1						
45	Kogon tuman	2- MTM	207021858	70	3	1	1	1					
46	Kogon tuman	3- MTM	207049347	49	2	1		1					
47	Kogon tuman	4- MTM	207049330	39	2		1						1
48	Kogon tuman	5-MTM	207049354	29	1		1						
49	Kogon tuman	6- MTM	207048902	35	2		1						1
50	Kogon tuman	7-MTM	207048894	50	3	1	1						1
51	Kogon tuman	8- MTM	207021668	78	4	1	1	1					1
52	Kogon tuman	9-MTT	207325074	26	1		1						

53	Kogon tuman	10-MTT	207325082	38	2	1							1
54	Kogon tuman	11-MTT	207325099	35	2		1						1
55	Kogon tuman	12-MTT	309343824	22	1		1						
56	Kogon tuman	13-MTT	309358006	27	1		1						
57	Kogon tuman	14-MTT	309309270	22	1		1						
58	Kogon tuman	Kogon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	202805271	205	11	3			1	1	1	1	4
59	Kogon tuman	Baxouddin Naqshband yodgorlik majmuasi	205192275	48	2	1							1
JAMI:				4297	207	30	33	69	4	7	5	4	55